



UDK: 631.527.633.511

G'O'ZANING O'RTA TOLALI YANGI "SP-212" NAVI

O'razmatov Nasibjon Nazirovich

Paxta seleksiyasi, urug 'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti Farg'ona ilmiy tajriba stansiyasi katta ilmiy xodimi q.x.f.f.d. (PhD) E-mail: nasibjon_1984@mail.ru +998911127100

Qosimov Abdurashid

Paxta seleksiyasi, urug 'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti Andijon ilmiy tajriba stansiyasi katta ilmiy xodimi q.x.f.d. (DSc) +998942452490

Malikov Xusanboy Mirzabaxrom o'g'li

Paxta seleksiyasi, urug 'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti Farg'ona ilmiy tajriba stansiyasi mustaqil tadqiqotchi +998903909165

Nazirov Nozimjon Nasibjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti talabasi +998945637100

Annotatsiya: *Farg'ona viloyatining tuproq iqlim sharoitlari, geografik joylashuvi, samarali xarorat yig'indisi, suv bilan taminlanganlik darajasi hamda tuproqlarini inobatga olgan xolda yangi SP-212 navining qisqacha morfologiyasi va biologiyasi berilgan*

Kalit so'zlar: *G'o'za, nav, SP-212, paxta, ko'sak, chigit, tola mikroneyr, xosildorlik, tezpishar, tuproq, iqlim*

Аннотация: *С учетом почвенно-климатических условий, географического положения, эффективного температурного диапазона, уровня водоснабжения и почв Ферганской области, приводится краткое описание морфологии и биологии нового сорта СП-212.*

Ключевые слова: *хлопок, сорт, СП-212, хлопок, коробочка, семя, микroneйр волокна, урожайность, раннее созревание, почва, климат.*

Abstract: *Taking into account the soil-climatic conditions, geographical location, effective temperature range, water supply level and soils of the Fergana region, a brief morphology and biology of the new SP-212 variety is given.*

Keywords: *Cotton, variety, SP-212, cotton, boll, seed, fiber micronaire, yield, early ripening, soil, climate*

Yaratilgan va yaratilayotgan g'o'za navlari qimmatli xo'jalik belgilari va biologik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Hozirgi kunda paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklari va klasterlar uchun erta pishar asosiy hosil sentyabr oyida pishib etiladigan tezpishar, yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli, har gektar maydondan olinadigan sifatli tola miqdori yuqori bo'lgan hamda morfo-biologik va xo'jalik belgilari



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

bo'yicha ustunligini o'zida mujassam etgan g'o'za navlarining joriy etilishi muxim vazifalardan biri hisoblanadi.

G'o'zaning yangi "SP-212" navi Buxoro-8 x 52880 (xorijiy) g'o'za navlarini chatishtirish natijasida olingan duragaylarda ko'p marta yakka tartibda tanlash usuli orqali yaratilgan.



Nav orginatori – Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti Farg'ona ilmiy tajriba stansiyasi, nav mualliflari, N.N.O'razmatov, N.Nazirov, A.Qosimov, X.Adxamov va boshqalar. Ushbu nav hozirda Davlat nav sinovida o'rganilmoqda.

"SP-212" g'o'za navining navdorligini oshirish va urug'lik chigitlarini ko'paytirish ishlari 2021 yildan buyon PSUYeAITI Farg'ona ilmiy tajriba stansiyasida olib borilmoqda.

Nav o'simligining bo'yi 115-120 sm, konussimon shaklda bo'lib, o'suv shoxi 1-1,5 tani tashkil etadi. Poyasi baquvvat, kam tuklangan, yashil rangli, kuzga borib och qizg'ish tus oladi. Ildizi-kuchli rivojlangan, o'q ildiz. Hosil shoxlari poyaning 5-6 bo'g'inida paydo bo'ladi, shoxlanishi 1,0-1,5 tipga mansub. Barglarini o'lchami o'rtacha yiriklikda, 3-5 pallali, pallalari keng, yashil rangda. Gullari och sariq rangda, dog'siz changdoni sarg'ish.

Gulbargi 14-15 tishli. Ko'saklari ovalsimon, o'rtacha yiriklikda, uchliligi o'rtacha, yuzasida uzuq-yuluq egatchalar mavjud emas, yulduzchasi kam rivojlangan. Ko'saklarining ochilish darajasi yuqori, paxta ko'sak chanoqlariga yopishib turadi hamda to'kilib ketmaydi. Chigiti konussimon uchsiz, o'rtacha yiriklikda va o'rtacha tuklangan.

Tolasi oq rangda. Navning tezpisharligi 115-118 kunni, bitta ko'sagidagi paxta vazni 5,6-5,8 g ni, 1000 dona chigit vazni 112-115 g ni, tola chiqimi 36-38% ni, tola uzunligi 33,5-34,0 mm ni tashkil qiladi. Tola sifati ko'rsatkichlari bo'yicha olingan tahlil najjalariga ko'ra: mikroneyr 4,2,-4,6, solishtirma og'irlik kuchi 36,7 g.s/teks, tola uzunligi (dyyumda) 1,29, metrik nomeri 6170, pishiqligi 4,4 g.k., nisbiy uzilish uzunligi 27.1 km ga teng bo'ldi.

"Sifat" markazining ma'lumotlariga asosan "SP-212" g'o'za navining tolasi sifat IV tip talablariga to'liq javob beradi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

Yangi "SP-212" g' o' za navi "S-8290" navidan 4-5 kun erta pishib etiladi va ko' saklari ham tezkor ochiladi. 2023 yilda Farg'ona viloyati sharoitida "SP-212" g' o' za navi chigitlari 4 aprelda ekilib, birinchi ko' saklar 22 iyulda ochildi.

Barcha to' plangan hosil (48,4 s/ga) 10-sentyabrga qadar yig'ib-terib olindi. Bu holat ushbu yangi g' o' za navining istiqbolli ekanligidan darak beradi. 2024 yilda mazkur nav chigitlari Farg'ona viloyatida 10 gektar maydonga ekildi va o'rtacha hosildorlik 52,4 s/ga tashkil etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari", O'zPITI, Toshkent, 2007.
2. Доспехов Б.А. – Методика полевого опыта. Москва: 1985. С. 350